

## BADIIY TO'QIMADA MONOLOGIK TALQIN

**Abdullayev Xamro Dauletbaevich**

*filologiya fanlar nomzodi, dotsent*

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti*

*O'zbekiston, Nukus shahri*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada taniqli o'zbek yozuvchisi Pirimqul Qodirovning "Humoyun va Akbar" romanidagi poetik nutq masalasi borasida ilmiy mulohaza yuritiladi. Yozuvchining badiiy matn yaratishdagi o'ziga xos uslubi, ayniqsa, tarixiy matn yaratishda badiiy to'qimaning ishonchliligini ta'minlashda monologik nutqning o'rni singari masalalar yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Roman, badiiy to'qima, poetik nutq, diolog, monolog, tush va xat tasviri, konflikt, psixologik tasvir.*

Tarixiy romanlarda tarixiy shaxslarning xarakterini yaratish, ularning qalb dialektikasini, ma'naviy-ruhiy qiyofasini, xarakterlarning individual qirralarini ochib berish yozuvchidan katta ijodiy tajriba va yuksak badiiy mahorat talab qiladi. Yozuvchi mahoratini belgilovchi eng asosiy omil ham qahramonlar ruhiyatini ishonchli aks ettira bilish badiiy psixologizmga erishishdir.

Tarixiy shaxslarning ichki ruhiy olami, qiyofasi, o'y-hayollari, ideallari P.Qodirovning "Humoyun va Akbar" romanida monolog, diolog, tush, xat tasvirlari orqali mohirona ochib berilgan. Adabiyotshunos P.Alimov to'g'ri ta'kidlaganidek, "P.Qodirov shaxs xakteri qiyofasining uning dunyoqarashi va ideali bilan bir butunligini ko'rsatib bera borib, inson individualligining shakllanish va rivojlanishidan to konkret qiyofaga kirgunicha bo'lgan yo'lni kuzatadi".<sup>85</sup>

Adibning mazkur romanida ichki monologlarning mulohaza yuritish, orzu-hayol qilish, o'zini-o'zi tahlil etsish, xotira qilish kabi turlari ko'proq uchraydi. Romanda ishlatilgan maktublardagi muhabbat izhorlari, aka-ukalar, ota-bola o'rtasidagi ziddiyatlar monolog-xotira, monolog-mulohaza turlari orqali tasvirlanib, bularning barchasi asarning bosh g'oyasini oydinlashtirishga xizmat qilgan.

Yozuvchi qahramon ichki kechinmalari tasvirini turli xil psixologik vositalar orqali berar ekan, u bir vaqtning o'zida qahramon yashagan zamon va muhitga ham katta e'tibor beradi. Buning dalili sifatida rus olimi V.Komponetsning fikrini keltirib o'tish o'rinlidir "O'z-o'zini tahlil qilish usuli faqat yakka bir shaxsning ichki olamiga kirib borish usuligina emas, balki u yashagan muhitga, o'sha zamon kishilari o'rtasidagi umuminsoniy munosabatlar tizimiga baho berish usulidir"<sup>86</sup>. P.Qodirovning "Humoyun va Akbar" romanida

<sup>85</sup> Alimov P. Tarix, shaxs, badiya. T 1992, 41-bet

<sup>86</sup> В.В.Компонец "Художественный психологизм в советской литературе". Л-1980. 23 стр

voqealarning keskinlashuvi jarayonida qahramon qalbidagi his-tuyg'ular muhit va sharoit ta'sirida paydo bo'lishi Humoyun, Akbar, Xonzoda begim, Homida bonu, Bayramxon monoglari orqali ifodalanadi.

“U birdan qaynotasi aytgan so'zlarni esladi: barcha bani bashar bitta Odam Ato va Momo Havodan tarqagan bo'lsa, ming yillar avval, otashparastlik davrlarida, Jodha Bayning ariy bobolari bilan boburiylarning uzoq ajdodlari qo'ni-qo'shni, quda-anda bo'lib yashaganlariga nega ishonish mumkin emas? Kelin-kuyovni olov atrofida aylantirish odati turkey xalqlarda ham bor-ku”.(382-bet)

Ushbu monolog-muhokamada yozuvchi tilining ifoda uslubi juda ham sof va tozadir. Monologning savol-javob uslubida berilishi esa Akbarning g'oyaviy maqsadlarini yanada yorqinroq ochib beradi. Akbar hind qizi Jodha Bayni joni dilidan sevadi. Lekin ikki sevishgan qalbning murodu-maqsadlariga yetishi uchun ularni bir narsa qiynaydi. U ham bo'lsa Akbarning islom diniga mansubligi va Jogdha Bayning hind haykal xudolariga sig'inishidir. Bundan boshqada Akbarning ongida ushbu fikrning kechishiga sabab, agarda u hind qiziga uylansa saroydagi din ulamolari fisqu-fasodni kuchaytirib, uning boshiga ming-minglab tashvishlarni keltirishi va hatto xalqni unga qarshi qo'zg'atishi ham mumkin. Yuqorida keltirilgan monolog xuddi ana shunday jarayonda yuzaga kelishi tabiiy holdir. Chunki “ichki monolog insonning o'y-fikrlari va his-tuyg'ularining ochiq berilishiga yordamlashadi”<sup>87</sup>. Obrazning ishonarliligi esa qahramon nutqining tipiklashtirilib berilganligidadir.

“Akbarning ham o'pkasi to'lib gapirolmay qoldi. Bu qanday shavqatsiz taqdirki, kim unga katta yaxshiliklar qilsa uzoq yashay olmay, o'lib ketadi. Otasi, Bayramxon, Mohim enaga... Mana endi Salim ota... Shohlik hokimiyati chindan ham ota aytganday bir ajdaho ekanu Akbarga qalqon bo'lgan eng yaxshi odamlar birin-ketin uning qurboniga aylanmoqdami? Balki endi navbat Akbarning o'ziga yoki onasi Hamida begimga kelgandir?” (421-bet)

Misol qilib keltirilgan Akbarning monologidan ko'rinyaptiki, yozuvchi qahramon nutqi orqali real tarixiy muhitning mafkuraviy-siyosiy, ijtimoiy-g'oyaviy mazmunini tasvirlab berishga harakat qilmoqda.

Ichki monoglardan foydalanish usuli qahramon orzu-hayollarining real va konkret tasvirlanishiga, asar g'oyasining yanada chuqurlashuviga xizmat qiladi. asar qahramonlaridan biri Xonzodabegim monologi orqali muhit ruhi tasviri juda o'rinli berilgan.

“Axir bu qizlar eng nufuzli beku ayonlarning oilasidan. Agar birontasining yuz-ko'ziga chavgon cho'p tegib yarador qilsa, chandi qoldirsa yoki birontasi otdan yiqilib, tuyoq tagida ezilsa mutaasib shayxlar yana fisqu-fasodni ko'paytiradi. Ular qizlarining doim parda ichida- uy asirasi bo'lib o'ltirishini talab qiladilar”. (17-bet)

Misol qilib keltirilgan bu ichki monolog roman ekspozitsiyasida berilgan. “Ekspozitsiya(lotincha expositio-tushuntirish) – syujetning kirish, boshlanma qismi, asar voqeasi bo'lib o'tadigan joy, qahramonlarning konfliktgacha bo'lgan paytdagi qiyofasi,

<sup>87</sup>М.Азизов. Мастерство Чингиза Айтматова.авторреферат. Махачкала, 1974. 7 стр

holatini namoyon etadigan vaziyat, shart-sharoit tasviri”<sup>88</sup>. Yozuvchi ushbu monologni “Birontasi otdan yiqilib, tuyoq tagida ezilsa”, “Mutaasib shayxlar yana fisqu-fasodni ko’paytiradi” deb ekspozitsiyada berish orqali kitobxon bilan tarixiy vaziyat o’rtasidagi bog’lanishni keltirib chiqaradi. Ya’ni kitobxon Humoyun va Akbar yashagan tarixiy shart-sharoit haqida tasavvurga ega bo’ladi. Bu sohada izlanuvchi Gulchehra Imomova aytganidek yozuvchi “qahramonlar bilan tarixiy vaziyat o’rtasidagi bog’lanishga alohida ahamiyat berib, ruhiy dunyo jumbushlarini monologik til orqali reallashtiradi”<sup>89</sup>.

Yuqorida keltirilgan monologlarni tahlil qilish jarayonida yozuvchi haddan tashqari ruhiyatni kuchaytirib qahramonning tushkunlikka, fojeaga olib kelganday ko’rinadi. Yuzaki qaraganda shunday, lekin yozuvchi pessimizm berilmaydi. Aksincha, davrning ijtimoiy-sotsial muammolarini, podsho saltanatining qiyofasini yoritishga xizmat qildiradi.

Asar qahramonlari bo’lgan Humoyun va Akbar kabilarni aqlli, dono podsho, chuqur tafakkur egasi qilgan, payti kelganda qattiqqo’l ota, ayovsiz jangchi etgan o’sha muhit-podshohlik saltanatidir. Yuqorida keltirilgan monologlarning barchasida shu narsaning aksi bor va bu asar g’oyasini to’g’ri tushunishga yordam beradi. Asar qahramonlari bo’lgan Humoyun va Akbarning monologlarida o’sha zamonning, podsho saltanatining jirkanch qiyofasi ochib berilgan. Adib P.Qodirov qahramonlarning xatti-harakatini, butun faoliyatini, hatto o’y-fikr mulohazalarini, his-hayajonlarini umuminsoniy axloqiy-estetik muammolardan ajralmagan holda bog’lab aks ettiradi.

Adabiyotimizdagi zamonaviy mavzudagimi, tarixiy mavzudagimi asarni olib qaramaylik ular qahramonning orqasida yozuvchining ovozi bordek seziladi. Ayniqsa qahramonlarning ichki monologlarida bu narsa ko’zga yaqqol namoyon bo’ladi. Adabiyotshunos Hotam Umurov aytganidek: “yozuvchi obrazga singib ketar ekan, u aynan bo’lmagan voqealarni, odamlarni bordek his etadi, eshitadi, ko’radi. Ularning obyektiv mavjudligiga ishonib, o’zining “men”idan uzoqlashadi. U o’z tasavvuri, hayolida yaratgan qahramonning taqdirini aynan, ba’zida qiyinchilik bilan boshidan kechira boshlaydi, unga, uning yashash tarziga, tortayotgan rohatu-azoblariga sherik bo’ladi. Lekin o’zligini tamoman unutadimi?”<sup>90</sup> Aksincha, P.Qodirov ta’kidlaganidek “san’atkor yozuvchi shaxsan o’zi ko’rmagan voqealarni boshidan o’tkazmagan kechinma va hissiyotlarni ichdan astoydil his qilguncha o’rganadi”<sup>91</sup>. Va asardagi Humoyun, Akbar, Nizom monologlarida avtorning ovozi eshilib turadi.

Ushbu fikrning tasdig’i uchun Xonzodabegim monologiga e’tibor qilamiz.

“Xonzoda begim Komron bilan so’rashar ekan, uning yirik gavdasi otasinikiga o’xshab ketishini hayolidan o’tkazdi. To’rt og’ani ichida eng gavdasi yirigi, ko’rinishi salobatli va ovozi jarangdori Komron mirzo. U turkiy tilning nozik tovlanishlarini Humoyundan

<sup>88</sup>T.Boboyev.Adabiyotshunoslikkikirish. Toshkent-1979.113-bet

<sup>89</sup>G.Imomova.Ruhiy iztiroblar.Toshkent-1992. 18-bet

<sup>90</sup>H.Umurov.Badiiy ijod mo’jizalari. Samarqand-1992. 53-bet

<sup>91</sup>P.Qodirov.O’ylar. Toshkent-1971. 17-bet

yaخشiroq biladi, notiqligi ham Bobur mirzoni eslatadi. To'rt og'aning har birida otalarining qaysidir xislati va fazilati bor, lekin nega ular yakdil bo'lib birlasholmaydilar?" (94-bet)

Monologdagi "lekin nega ular yakdil bo'lib birlasholmaydilar?" savoli xuddi avtor tomonidan aytilayotganday bo'ladi. Chunki bu muammo faqat yozuvchinigina emas, balki butun tarixchi olimlarni ham qiynab kelayotgan masaladir. Monologda avtor nutqi bilan qahramon nutqining birikib ketishi yozuvchiga shohlar saltanatining yashirin, hech kim bilmaydigan sirlarini real tasvirlashiga imkon bergan.

Xulosa qilib aytganda, P.Qodirov ishlatgan monologlar qahramonlarning jozibali, osoyishta ichki nutqlari emas, balki hayotning past-balandi, to's-to'polonlari kabi shiddatli o'y-fikrlardan iboratdir. Tarixiy mavzuda yozilgan asarlar, xususan, romanlar xalqimiz tarixining badiiy solnomasidir. Shuning uchun ham milliy hurlik tufayli biz o'zligini anglayotgan, ajdodlarining kim ekanligi, tarixiy ildizlari qaysi davrlarga borib taqalishi bilan qiziqayotgan har bir vatandoshimiz uchun tarixiy manbalar bilan bir qatorda shu mavzudagi badiiy asarlar ham g'oyat nodir, tarixiy xotira sarchashmasi vazifasini o'taydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimov P. Tarix, shaxs, badiya. T.; 1992.
2. Азизов М. Мастерство Чингиза Айтматова. автореферат. Махачкала, 1974.
3. Boboev T. Adabiyotshunoslikka kirish. T.; 1979.
4. Imomova G. Ruhiy iztiroblar.T.; 1992.
5. Компонец В.В. "Художественный психологизм в советской литературе". Л-1980.
6. Qodirov P. O'ylar. T.; 1971.
7. Qodirov P. Humoyun va Akbar. T.; 1997.
8. Umurov H. Badiiy ijod mo'jizalari. Samarqand-1992.
9. В.Р.Щербина. История и современность. Москва-1997.
10. Zayniddinova A. Tarixiy va badiiy haqiqat. T.; 1991.